



SUG'URTA TASHKILOTLARIDA ICHKI AUDIT YIG'MA HISOBOTINING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

PROSPECTS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT REPORTING IN INSURANCE ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS

¹Maxmudova Sharifa
Elmurodovna

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti.
G-mail: maxmudovasharifa757@gmail.com

Annotatsiya
Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada sug'urta tashkilotlarida ichki audit yig'ma hisobotini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan. Ichki audit yig'ma hisobotlari nafaqat korxona ichki boshqaruvini samarali tashkil etishda, balki moliyaviy barqarorlik va shaffoflikni ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, maqolada xalqaro audit standartlari talablarini milliy amaliyotga moslashtirish zaruriyati asoslab berilgan. Shuningdek, tadqiqotda ichki audit yig'ma hisobotlarini shakllantirishdagi mavjud muammolar, xususan, axborotlarning yetarliligi, ularning ishonchliligi va taqqoslanuvchanligi bilan bog'liq jihatlar tahlil qilingan. Shuningdek, hisobotlarni raqamlashtirish, xalqaro tajribalarni joriy etish hamda sug'urta kompaniyalarida risklarni boshqarish jarayoniga integratsiya qilish istiqbollari ko'rib chiqilgan. Olingan natijalar sug'urta tashkilotlari uchun ichki audit yig'ma hisobotini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash, xalqaro tajribadan samarali foydalanish va milliy amaliyotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Eng. - This article examines the issues of improving consolidated internal audit reports in insurance organizations based on international standards. Consolidated internal audit reports play a crucial role not only in ensuring effective corporate governance but also in maintaining financial stability and transparency. From this perspective, the article substantiates the necessity of adapting the requirements of international auditing standards to national practice. The study analyzes existing problems in the preparation of consolidated internal audit reports, particularly related to the sufficiency, reliability, and comparability of information. In addition, the prospects of digitalization, the implementation of international best practices, and the integration of reporting into the risk management process of insurance companies are discussed. The results obtained contribute to identifying the main directions for improving consolidated internal audit reports, making effective use of international experience, and enhancing national practice in insurance organizations.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ *ichki audit, yig'ma hisobot, xalqaro standartlar, sug'urta tashkilotlari, moliyaviy barqarorlik, raqamlashtirish.*
❖ *internal audit, consolidated reporting, international standards, insurance organizations, financial stability, digitalization.*

Kirish.

Bugungi kunda sug'urta tashkilotlari faoliyatining barqarorligi va samaradorligi

bevosita ularning moliyaviy hisobotlarining shaffofligi hamda ichki audit tizimining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liqdir. Ichki auditning eng

muhim natijalaridan biri bo'lgan yig'ma hisobotlar korxona boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli axborot manbai sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu hisobotlarning sifati va mazmuni xalqaro standartlarga mos kelishi sug'urta kompaniyalarining nafaqat milliy, balki xalqaro moliya bozorida ham ishonchliligini oshiradi.

So'nggi yillarda ichki audit tizimini takomillashtirish, uning metodologik asoslarini xalqaro tajribaga moslashtirish va jarayonlarni raqamlashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, sug'urta tashkilotlarida ichki audit yig'ma hisobotlarining samarali yuritilishi risklarni oldindan aniqlash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Mazkur maqolada sug'urta tashkilotlarida ichki audit yig'ma hisobotini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish zaruriyati yoritilib, mavjud muammolar tahlil qilinadi hamda amaliy yechimlar va istiqbolli yo'nalishlar ko'rsatib o'tiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Ichki audit yig'ma hisobotini takomillashtirish masalasi jahon ilmiy adabiyotida keng o'rganilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan metodologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Xalqaro ichki auditorlar instituti (IIA) tomonidan qabul qilingan Ichki auditning xalqaro professional amaliyot standartlari (IPPF) hisobotlarni tayyorlash va ularning sifatini oshirishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu standartlarda ichki audit faoliyati natijalari bo'yicha yig'ma hisobotlarning shaffofligi, dolzarbligi va manfaatdor tomonlar uchun tushunarli bo'lishi ustuvor tamoyillar sifatida belgilangan [1].

Shuningdek, COSO (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission) modeli ichki nazorat tizimining samaradorligini baholashda muhim metodik yondashuv sifatida ko'plab tadqiqotlarda

qo'llaniladi. Mazkur model asosida ichki audit yig'ma hisobotlarida risklarni aniqlash, baholash va boshqaruv qarorlariga integratsiya qilish zarurati ta'kidlab o'tiladi [2].

G'arb olimlari, jumladan, L. Sawyer, M. Dittenhofer va J. Scheiner o'z tadqiqotlarida ichki audit hisobotlarini takomillashtirishni boshqaruv qarorlarining sifatiga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida qayd etishgan. Ularning fikricha, yig'ma hisobotlar aniq, ishonchli va solishtiriladigan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi, hamda kompaniya manfaatdor tomonlari uchun qaror qabul qilish jarayonini yengillashtirishi lozim [3].

O'zbekiston olimlari orasida ham ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, X. Tursunov, M. Karimov va N. Rasulovlarning ilmiy ishlari ichki audit tizimini milliy sharoitda rivojlantirish va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish masalalariga bag'ishlangan. Ularning izlanishlarida ichki audit yig'ma hisobotlarining amaliyotdagi kamchiliklari, xususan, ma'lumotlarning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi va xalqaro mezonlarga to'liq mos kelmasligi ta'kidlangan [4].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud adabiyotlarda ichki audit yig'ma hisobotlarining nazariy va amaliy jihatlari yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, sug'urta tashkilotlari misolida ularni xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu bois, mazkur tadqiqot sug'urta kompaniyalarida ichki audit yig'ma hisobotlarini takomillashtirishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishga qaratilganligi bilan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot ishida sug'urta tashkilotlari ichki audit yig'ma hisobotni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-nazariy metod, qiyosiy tahlil metodi, amaliy tahlil

metodi, statistik va iqtisodiy tahlil metodlari, sintez va induksiya metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ichki audit yig'ma hisobot – bu xo'jalik yurituvchi sub'ektning ichki auditorlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar, moliyaviy tahlillar va nazorat baholashlari natijalarini umumlashtirgan, tizimlashtirilgan va rahbariyatga taqdim etiladigan rasmiy hujjatdir. Mazkur hisobotda nafaqat auditorlik tekshiruvlari xulosalari, balki mavjud risklar, ichki nazorat tizimidagi bo'shliqlar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ham o'z aksini topadi.

Ichki audit yig'ma hisobotining asosiy vazifasi:

- ❖ boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash;

- ❖ moliyaviy va operatsion faoliyatning qonunchilikka, hamda ichki siyosatlariga mosligini baholash;

- ❖ risklarni aniqlash va ularni minimallashtirish choralari taklif etish;

- ❖ kompaniya faoliyatining samaradorligi va shaffofligini oshirishga ko'maklashishdir.

Xalqaro standartlar (IPPF [5], COSO [6]) talablari bo'yicha bunday hisobot aniq, qisqa, maqsadli va manfaatdor tomonlarga tushunarli bo'lishi lozim. Shuningdek, hisobotda raqamli tahlillar, grafik va jadval ko'rinishidagi ko'rsatkichlar keng qo'llanilishi tavsiya etiladi.

IPPF (International Professional Practices Framework) - "Ichki auditning xalqaro kasbiy amaliyotlar doirasi", ya'ni Ichki Auditorlar Instituti (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan yagona metodologik asosdir. Bu ichki auditorlarning butun dunyo bo'yicha ish yuritishida yagona yondashuv va sifatni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

IPPF tarkibiga asosiy printsiplar (ichki auditning asosiy qadriyatlari), xalqaro standartlar (Internal Auditing Standards); Etika kodeksi, amaliy qo'llanmalar va tavsiyalar

kiradi. Demak, IPPF – ichki auditorlar uchun "qo'llanma va qoidalar majmuasi" bo'lib, ularning kasbiy faoliyatini yagona standartlar asosida tashkil etish, audit jarayonlarining sifatini ta'minlash va xalqaro amaliyotga moslashtirishga xizmat qiladi.

COSO (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission) - "Treduy Komissiyasi homiy tashkilotlari qo'mitasi"dir. AQShda tuzilgan xalqaro tashkilot bo'lib, ichki nazorat va risklarni boshqarish bo'yicha eng mashhur modelni ishlab chiqqan. COSO modeli ichki nazorat tizimini 5 ta asosiy komponent orqali baholaydi: nazorat muhiti (kompaniyada boshqaruv madaniyati, etika, tuzilma), risklarni baholash; nazorat faoliyatlari (protseduralar, ichki qoidalar), axborot va kommunikatsiya; monitoring (doimiy kuzatuv va baholash). COSO – ichki nazorat tizimining samaradorligini o'lchash va risklarni boshqarish uchun xalqaro model bo'lib, u korxona faoliyatining shaffofligi, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va strategik maqsadlarga erishishni ta'minlashda keng qo'llaniladi.

IPPF audit faoliyatining metodologik asosini belgilasa, COSO ichki nazorat tizimini amaliy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladi. Ularning birgalikda qo'llanilishi sug'urta tashkilotlarida moliyaviy barqarorlik, shaffoflik va boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotlarida ichki audit yig'ma hisobotlarini o'rganish jarayonida aniqlanishicha, amaldagi amaliyotda bir qator kamchiliklar mavjud. Avvalo, hisobotlarda taqdim etilayotgan ma'lumotlarning to'liqligi va yetarliligi yetarli darajada emas. Masalan, ko'plab sug'urta kompaniyalarida ichki audit natijalari moliyaviy ko'rsatkichlarga haddan tashqari e'tibor qaratgan holda, risklarni sifat jihatdan baholashga kamroq urg'u beradi.

Shuningdek, hisobotlarda keltirilayotgan ma'lumotlarning ishonchliligi va taqqoslanuvchanligi xalqaro standartlar (IPPF,

COSO) talablariga to'liq mos kelmaydi. Bu holat, o'z navbatida, boshqaruv organlariga qaror qabul qilishda noto'liq yoki nomukammal ma'lumotlar berilishiga olib kelmoqda. Masalan, auditda aniqlangan risklar yoki ichki nazorat tizimidagi zaifliklar ko'pincha yig'ma hisobotda umumiy tarzda keltiriladi, ammo ularning moliyaviy natijalarga bevosita ta'siri raqamli tahlillar bilan asoslanmaydi.

Qiyosiy tahlillarga ko'ra, xalqaro tajribada (masalan, Yevropa va AQSh sug'urta kompaniyalarida) ichki audit yig'ma hisobotlari har chorak yakunida tuziladi va unda aniq indikatorlar [7]:

- risk darajalari (yuqori, o'rta, past);
- ichki nazoratning samaradorlik ko'rsatkichlari;
- moliyaviy va operatsion jarayonlar bo'yicha tavsiyalar bajarilish foizi ko'rsatib boriladi.

O'zbekiston sug'urta kompaniyalarida esa ko'pincha yig'ma hisobotlar yil yakunida tayyorlanib, unda umumiy xulosalar keltiriladi, lekin tavsiyalar ijrosi ustidan tizimli monitoring yuritilmaydi. Bu esa boshqaruv qarorlarining tezkorligi va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

1-jadval

Xalqaro standartlar va milliy amaliyotda ichki audit yig'ma hisobotlari taqqoslanishi*

Ko'rsatkichlar	Xalqaro standartlar (IPPF, COSO asosida)	Milliy amaliyot (O'zbekiston sug'urta tashkilotlari)
Hisobot davriyligi	Har chorakda tayyorlanadi, yirik kompaniyalarda esa har oyda qisqa "management report" taqdim etiladi.	Asosan yil yakunida yoki yilda 2 marotaba tayyorlanadi. Bu esa tezkor qaror qabul qilishni qiyinlashtiradi.
Ma'lumotlarning to'liqligi	Moliyaviy ko'rsatkichlardan tashqari risklar, ichki nazorat samaradorligi, tavsiyalar bajarilishi darajasi foizlarda keltiriladi.	Asosan moliyaviy natijalarga urg'u qaratiladi, risklar va ichki nazorat ko'rsatkichlari yetarlicha ochib berilmaydi.
Ma'lumotlarning taqqoslanuvchanligi	Hisobotlar xalqaro standartlar asosida yagona indikatorlarda (risk darajasi: yuqori, o'rta, past; KPI'lar) ifodalanadi.	Turli kompaniyalarda hisobot shakllari farq qiladi, yagona mezonlar ishlab chiqilmagan.
Vizualizatsiya	Jadval, diagramma, grafikalar keng qo'llaniladi, ma'lumotlar oson tahlil qilinadi.	Ko'pincha matnli shaklda beriladi, vizual tahlil elementlari juda kam.
Monitoring va tavsiyalar ijrosi	Tavsiyalar ijrosi bo'yicha keyingi choraklarda progress (foizlarda) ko'rsatib boriladi.	Tavsiyalar beriladi, lekin ularning bajarilishi yuzasidan tizimli monitoring yuritilmaydi.
Shaffoflik va manfaatdor tomonlarga taqdim etish	Hisobot kuzatuv kengashiga, menejmentga va ba'zi hollarda aktsiyadorlarga ochiq taqdim etiladi.	Asosan faqat ichki rahbariyat uchun tayyorlanadi, tashqi manfaatdor tomonlarga taqdim etilmaydi.

*Muallif tadqiqotlari natijasida tayyorlandi.

Yuqoridagi taqqoslash jadvalidan ko'rinib turibdiki, sug'urta tashkilotlarida ichki audit yig'ma hisobotlarini yuritish borasida xalqaro standartlar (IPPF, COSO) bilan milliy amaliyot o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud.

Avvalo, hisobot davriyligi masalasida katta farq kuzatiladi. Xalqaro amaliyotda ichki audit yig'ma hisobotlari odatda har chorakda tayyorlanadi va ayrim yirik kompaniyalarda esa har oylik "management report" sifatida

menejmentga taqdim etiladi. Bu esa boshqaruv organlariga risklar va muammolar haqida tezkor ma'lumot olish imkonini beradi. Milliy amaliyotda esa hisobotlar asosan yil yakunida yoki yilda ikki marta tayyorlanadi [8]. Natijada muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatlari cheklangan.

Ma'lumotlarning to'liqligi bo'yicha ham farqlar mavjud. Xalqaro standartlarda yig'ma hisobotlar nafaqat moliyaviy natijalarni, balki

risklar, ichki nazorat samaradorligi va tavsiyalar ijrosi darajasi kabi ko'rsatkichlarni ham qamrab oladi. Milliy amaliyotda esa e'tibor asosan moliyaviy ko'rsatkichlarga qaratilib, ichki nazorat tizimining kuchli va zaif tomonlari to'liq yoritilmaydi.

Taqqoslanuvchanlik masalasida xalqaro tajriba ustunlik qiladi. Chunki IPPF va COSO asosida tuzilgan hisobotlarda yagona indikatorlar (risk darajasi: yuqori, o'rta, past; KPI'lar) qo'llaniladi. Bu esa kompaniyalararo tahlilni osonlashtiradi. O'zbekistonda esa turli sug'urta kompaniyalari hisobotlarni o'z uslubida tayyorlaydi, yagona metodologiya mavjud emas.

Shuningdek, xalqaro amaliyotda hisobotlar jadval, grafik va diagrammalar yordamida vizual tarzda taqdim etiladi. Bu esa ma'lumotlarni tezkor o'zlashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishni osonlashtiradi. Milliy amaliyotda esa ko'proq matnli ma'lumotlarga tayaniladi, vizualizatsiya elementlari kam qo'llaniladi.

Eng muhim farqlardan biri - tavsiyalar ijrosining monitoringi. Xalqaro tajribada ichki audit yig'ma hisobotlarida tavsiyalar ijrosi keyingi davrlarda foiz ko'rinishida ko'rsatiladi. Bu jarayon rahbariyatni javobgarlikka

chorlaydi va ichki nazoratni kuchaytiradi. Milliy amaliyotda esa tavsiyalar beriladi, biroq ularning ijrosi ustidan doimiy monitoring yuritilmaydi.

Nihoyat, shaffoflik nuqtayi nazaridan ham sezilarli tafovut mavjud. Xalqaro standartlarga ko'ra, ichki audit yig'ma hisobotlari nafaqat rahbariyat va kuzatuv kengashiga, balki ba'zi hollarda aktsiyadorlarga ham taqdim etiladi. Milliy amaliyotda esa hisobotlar ko'proq faqat kompaniya ichki rahbariyatiga mo'ljallangan bo'lib qolmoqda.

Xalqaro standartlarga asoslangan ichki audit yig'ma hisobotlari tezkor, shaffof va kompleks yondashuvni ta'minlaydi, milliy amaliyotda esa ular kechiktirilgan, moliyaviy natijalarga qaratilgan va monitoring jihatdan sust shaklda yuritiladi. Shu bois, O'zbekistonda sug'urta tashkilotlari uchun xalqaro tajribani bosqichma-bosqich joriy etish zarur.

Xalqaro standartlar (IPPF, COSO) bo'yicha ichki audit hisobotlarida barcha turdagi risklarning kompleks va tizimli tarzda yoritilishi talab etiladi. Biroq mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab tashkilotlarda ayrim risk turlari yetarli darajada qamrab olinmayapti.

2-jadval

Ichki audit yig'ma hisobotida risklarning yoritish darajasi [9]

Risk turi	Xalqaro tashkilotlarida qamrov (%)	Milliy amaliyotdagi ehtimoliy holat
Kiberxavfsizlik	~84%	Juda past (misol: ~15%)
Raqamli buzilish	52% audit e'tibori ortgan	Kam yoritilgan
Axborot xavfsizligi nazorati	82% ishtirok	Yetarli emas
ERM faoliyati ishtiroki	60% mavjud, 40% yo'q	Raqamlarda aniq emas

Xalqaro amaliyotda ichki audit funksiyalari bugungi kunga dolzarb bo'lgan risk turlari - kiberxavfsizlik, raqamli buzilish (digital disruption), korporativ risk boshqaruvi (ERM) — bo'yicha faol ishtirok etmoqda, bu esa tashkilotlar xavfsizligi va strategik moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Milliy amaliyotda esa bu risklar ko'pincha yetarlicha yoritilmaydi, audit diqqatini

moliyaviy yoki an'anaviy sohalarida cheklab qolish kuzatiladi.

Shuning uchun O'zbekiston sug'urta kompaniyalarida ham yuqoridagi risk turlarini ichki audit hisobotlarida kengroq va tizimli yoritish, raqamli imkoniyatlardan samarali foydalanish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sug'urta tashkilotlarida ichki audit yig'ma hisobotlarini shakllantirish jarayoni hali ham

tor doirada amalga oshirilmoqda. Amaldagi milliy amaliyotda hisobotlarning asosiy e'tibori moliyaviy natijalarni qayd etishga qaratilgan bo'lib, strategik, sifat va zamonaviy texnologik risklar yetarli darajada qamrab olinmayapti. Natijada, audit hisobotlari boshqaruv qarorlarini qabul qilishda to'liq va keng qamrovli axborot manbasi sifatida xizmat qila olmayapti.

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatdiki, ichki audit jarayonlarida raqamlashtirish darajasi past bo'lgani uchun hisobotlarning tayyorlanishi va taqdim etilishi ortga surilmoqda. Bu esa qaror qabul qilish jarayonida kechikishlarga olib kelib, boshqaruv samaradorligini pasaytiradi. Bundan tashqari, mavjud hisobotlar ko'pincha murakkab, manfaatdor tomonlar uchun yetarli darajada tushunarli va qulay shaklda taqdim etilmaydi. Bunday holat rahbariyat va boshqa foydalanuvchilar uchun audit xulosalaridan samarali foydalanishni qiyinlashtirmoqda.

Umuman olganda, ichki audit yig'ma hisobotlarini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish nafaqat sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini

mustahkamlash, balki ularning risklarga nisbatan barqarorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini tezkor va sifatli qabul qilish hamda manfaatdor tomonlar bilan samarali axborot almashinuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sug'urta tashkilotlarida ichki audit yig'ma hisobotlari ko'proq moliyaviy natijalarni yoritishga yo'naltirilgan bo'lib, boshqa turdagi risklar – operatsion, huquqiy va axborot xavfsizligi bo'yicha ma'lumotlar yetarlicha aks ettirilmayapti. Shuningdek, hisobotlarning kechikib taqdim etilishi, ma'lumotlarning murakkab shaklda ifodalanishi ham boshqaruv qarorlarining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ichki audit tizimida IPPF va COSO kabi standartlarga amal qilish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda manfaatdor tomonlar uchun qulay vizual taqdimot shakllaridan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Shu sababli quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

3-jadval

Ichki audit yig'ma hisobotlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar*

Muammo	Taklif (yechim)	Kutilayotgan natija
Hisobotlarda faqat moliyaviy risklarga urg'u berilishi, boshqa risklarning cheklangan yoritilishi	COSO modeli asosida barcha turdagi risklarni (operatsion, huquqiy, IT) tizimli yoritish	Risklarni har tomonlama baholash va boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish
Hisobotlarning xalqaro standartlarga to'liq mos emasligi	IPPF asosida milliy metodologik qo'llanma ishlab chiqish	Hisobotlarning xalqaro mezonlarga mosligi va shaffoflikning oshishi
Raqamlashtirish jarayonining sustligi sababli hisobotlarning kechikishi	Audit jarayonlarini avtomatlashtirish va elektron platformalar joriy etish	Hisobotlarni real vaqt rejimida taqdim etish, boshqaruv qarorlarining tezkorligi
Hisobotlarning murakkab va tushunarsiz shaklda berilishi	Jadval, diagramma va infografikalar yordamida soddalashtirilgan vizual formatni qo'llash	Ma'lumotlarni tezkor va aniq qabul qilish imkoniyati
Auditorlarning xalqaro metodologiyadan xabardorligi pastligi	Auditorlarni xalqaro sertifikatlash (CIA, CISA va b.) dasturlariga jalb qilish	Auditorlarning malakasi va kasbiy darajasi oshishi
Nazorat mexanizmlarining yetarli emasligi	Markaziy bank va Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan qat'iy talablar va monitoring tizimi joriy etish	Ichki audit hisobotlari sifatining yaxshilanishi va tartibga solish samaradorligi

*Muallif tadqiqotlari natijasida shakllantirildi.

Amaldagi sug'urta tashkilotlarida shakllanayotgan ichki audit yig'ma hisobotlari hozircha xalqaro tajriba talablari bilan to'liq uyg'unlashmagan. Hisobotlarda asosan moliyaviy ko'rsatkichlarga ustuvor e'tibor qaratilib, operatsion, huquqiy hamda axborot xavfsizligiga oid boshqa muhim risklar yetarli darajada yoritilmayapti. Shu munosabat bilan, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, ichki audit yig'ma hisobotlarini xalqaro standartlar talablari asosida tayyorlash taklif etiladi. Bu yondashuv nafaqat moliyaviy ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlaydi, balki operatsion, huquqiy va axborot xavfsizligiga oid risklarning ham o'z vaqtida aniqlanishiga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, hisobotlarni tayyorlash jarayonida zamonaviy raqamli texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu hisob-kitoblarni tezkor va aniq amalga oshirishga hamda inson omili bilan bog'liq xatoliklarni kamaytirishga yordam beradi.

Uchinchidan, ichki audit hisobotlari faqat tor doiradagi mutaxassislar uchun emas, balki rahbariyat va boshqa manfaatdor tomonlar uchun ham tushunarli bo'lishi zarur. Shu sababli, hisobotlarni soddalashtirilgan mazmunda, vizual grafik va jadval ko'rinishida taqdim etish foydali hisoblanadi.

To'rtinchidan, ichki auditorlarning malakasini muntazam oshirish, ularni xalqaro tajribalar, yangi metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalanishga yo'naltirish lozim. Bu ichki audit hisobotlari sifatini yanada oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ichki audit yig'ma hisobotlarini takomillashtirish sug'urta tashkilotlari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarni samarali boshqarish va qaror qabul qilish jarayonini yengillashtirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan yondashuvlar xalqaro tajribaga uyg'un holda milliy amaliyot sifatini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. The Institute of Internal Auditors (IIA). *International Professional Practices Framework (IPPF)*. Altamonte Springs, Florida, 2017.
2. COSO. *Internal Control – Integrated Framework*. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission, 2013.
3. Sawyer, L., Dittenhofer, M., & Scheiner, J. *Sawyer's Internal Auditing: The Practice of Modern Internal Auditing*. Institute of Internal Auditors, 2003.
4. Tursunov X., Karimov M., Rasulov N. *Ichki audit tizimini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
5. The Institute of Internal Auditors. *International Professional Practices Framework (IPPF)*. – Altamonte Springs, FL: The IIA, 2017. – 128 p.
6. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission. *Internal control – Integrated framework*. – New York: AICPA, 2013. – 192 p.
7. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission. *Enterprise risk management: Integrating with strategy and performance*. – New York: AICPA, 2017. – 130 p.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Sug'urta tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish to'g'risidagi nizom*. – Toshkent, 2022.
9. Basel Committee on Banking Supervision. *The internal audit function in banks*. – Basel: Bank for International Settlements, 2012.